XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 13 - dekabr VI-57-23-4-66-K/21 Chiroqchi tuman hokimligi

Chiroqchi tumani “Torjilg‘a”, “Uymavut”, “Olmazor”, “Mustaqillik”, “Chiyal” “Arabbandi” va “Mirzatup” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarini tuzish to‘g‘risida.

“Torjilg‘a” mahalla fuqarolar yig‘inining 2020 yil 28 yanvardagi 8-sonli, “Uymavut” mahalla fuqarolar yig‘nining 2020 yil 7 maydagi 5/2-sonli, “Olmazor” mahalla fuqarolar yig‘nining 2021 yil 1 apreldagi 4/1-sonli, “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig‘nining 2021 yil 25 yanvardagi 1-sonli, “Chiyal” mahalla fuqarolar yig‘nining 2021 yil 30 apreldagi 4/1-sonli, “Arabbandi” mahalla fuqarolar yig‘nining 2018 yil 22 dekabrdagi 12/1-sonli va “Mirzatup” mahalla fuqarolar yig‘nining 2020 yil 2 fevraldagi 1/2-sonli bayonnomalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumandagi “Torjilg‘a”, “Uymavut”, “Olmazor”, “Mustaqillik”, “Chiyal”“Arabbandi” va “Mirzatup” mahalla fuqarolar yig‘inlaridan yangi mahallalar tuzilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining xulosasiga asosan yangi tuzilayotgan mahallalarga “Yashiltepa”, ”Manguyurt”, “Obu-xayot”, “Bolsuvar”, “Davr” va “Farovon kelajak” nomi berilsin.

3. Chiroqchi hokimi o‘rinbosari (SH.Chorshanbiyev), tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i (N.Nazarov), tuman Davlat xizmatlari markazi (B.Tog‘ayev) va boshqa tegishli mutasaddilar bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (SH.Chorshanbiyev), tuman IIB boshlig‘i (A.Beshimqulov) bilan birgalikda:

-mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga o‘zgartirishlar kiritish;

-yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga dumaloq muhr va tamg‘a yasash; mahalla fuqarolar yig‘inlariga INN raqami ochish uchun ruxsatnoma berish;

-mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (U.Abdiraximov, Sh.Chorshanbiyev) bilan birgalikda:

-yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nomi yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish;

-yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini ma’muriy bino va kerakli jihozlar bilan ta’minlash vazifasi topshirilsin.

6.Tuman hokimligi moliya bo‘limi (SH.Maxmatqulov) yangi mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil etilayotganligi munosabati bilan mahalla fuqarolar yig‘inlari raisi, raisning obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha hamda oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimiga qo‘shimcha shtat birliklari kiritsin.

7.Tuman hokimi o‘rinbosari -Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (SH.Chorshanbiyev), tuman Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari (T.Safarov)ga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining talablari asosida mahalla hududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlari o‘tkazilib, saylov yig‘ilishiga vakillar normasi asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan munosib kadrlar zaxirasini shakllantirib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

8. Tuman “Chiroqchi” gazetasi tahririyati (H.Egamberdiyev) mazkur qarorni gazetada rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmati xokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

9. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan kuchga kirishi belgilansin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Халқ депутатлари Чироқчи туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-57-23-4-66-K/21-сон қарорига
1-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan F.o‘.o‘.b.oning aholi va xonadonlar soni to‘g‘risida

T/r	Bo‘linayotgan Olmazor MFY jami axoli soni	Bo‘lingan Olmazor MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan “Obi Xayot” F.o‘.o‘.b.o axoli soni	Bo‘linayotgan Olmazor MFY jami oila soni	Bo‘lingan Olmazor MFYga qolgan oila soni	Yangi tashkil topgan “Obi Xayot” F.o‘.o‘.b.o oila soni
1	9636	6550	3086	1636	1124	512

Халқ депутатлари Чироқчи туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-57-23-4-66-K/21-сон қарорига
2-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan F.o‘.o‘.b.oning aholi va xonadonlar soni to‘g‘risida

T/r	Bo‘linayotgan Chiyal MFY jami axoli soni	Bo‘lingan Chiyal MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan “Davr” F.o‘.o‘.b.o axoli soni	Bo‘linayotgan Chiyal MFY jami oila soni	Bo‘lingan Chiyal MFYga qolgan oila soni	Yangi tashkil topgan “Davr” F.o‘.o‘.b.o oila soni
1	7424	3610	3814	1450	705	745

Халқ депутатлари Чироқчи туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-57-23-4-66-K/21-сон қарорига
3-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan F.o‘.o‘.b.oning aholi va xonadonlar soni to‘g‘risida

T/r	Bo‘linayotgan Uymovut MFY jami axoli soni	Bo‘lingan Uymovut MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan “Mangu yurt” F.o‘.o‘.b.o axoli soni	Bo‘linayotgan Uymovut MFY jami oila soni	Bo‘lingan Uymovut MFYga qolgan oila soni	Yangi tashkil topgan “Mangu yurt” F.o‘.o‘.b.o oila soni
1	7006	3270	3736	1432	655	777

Халқ депутатлари Чироқчи туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-57-23-4-66-K/21-сон қарорига
4-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan F.o‘.o‘.b.oning aholi va xonadonlar soni to‘g‘risida

t/r	MFY nomi	Aholi soni jami	Yangi tashkil topgan “Farovon kelajak” F.o‘.o‘.b.o axoli soni	Oila soni jami	Yangi tashkil topgan “Farovon kelajak” F.o‘.o‘.b.o oila soni
1	Arabbandi MFY	6444	1821	1218	342
2	Mirzatup MFY	7348	825	1687	177
3	Yangi tashkil etilgan “Farovon kelajak” MFY		2706		519

Халқ депутатлари Чироқчи туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-57-23-4-66-K/21-сон қарорига
5-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan F.o‘.o‘.b.oning aholi va xonadonlar soni to‘g‘risida

T/r	Bo‘linayotgan Torjilg‘a MFY jami axoli soni	Bo‘lingan Torjilg‘a MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan “Yashiltepa” F.o‘.o‘.b.o axoli soni	Bo‘linayotgan Torjilg‘a MFY jami oila soni	Bo‘lingan Torjilg‘a MFYga qolgan oila soni	Yangi tashkil topgan “Yashiltepa” F.o‘.o‘.b.o oila soni
1	8140	5140	3000	1236	696	540

Халқ депутатлари Чироқчи туман
Кенгашининг
2021 йил 13 декабрдаги
VI-57-23-4-66-K/21-сон қарорига
6-илова

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan F.o‘.o‘.b.oning aholi va xonadonlar soni to‘g‘risida

T/r	Bo‘linayotgan Mustaqillik MFY jami axoli soni	Bo‘lingan Mustaqillik MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan “Bolsuvar” F.o‘.o‘.b.o axoli soni	Bo‘linayotgan Mustaqillik MFY jami oila soni	Bo‘lingan Mustaqillik MFYga qolgan oila soni	Yangi tashkil topgan “Bolsuvar” F.o‘.o‘.b.o oila soni
1	7048	4298	2750	1150	680	470